



Zamonamiz qahramonlari

ODAMIYLIK – BOQIY FAZILAT YURAKKA YAQIN OLINGAN JASORAT

► Boshlanishi 1-betda

Yurtdoshimizning ayoli voqea tafsilotlari, turmush o‘rtog‘i suvga tushib ketgan ikki qizaloqqa yordam berish uchun qanday yo‘l tutgani haqida ko‘p gapirishni xushlamaydi. Chunki yaqin odamini yo‘qotgani yetmagandek bunga sabab bo‘lgan voqeani eslash juda og‘ir. Hammamiz insonmiz, axir! — Turmush o‘rtog‘imni bilgan ham, bilmagan ham uni qahramon, bir insonni qutqaraman deb shahid ketdi, deya haqqiga duo qilyapti. Rostdanam u juda yaxshi, halim odam edi. Inson kiprik qoqquncha yo‘q bo‘lishi mumkin degan gap juda to‘g‘ri ekan. Shu kiprik qoqqunimizcha ko‘z oldimizda g‘oyib bo‘ldi. Suvga nur kabi tushib ketdi.

2025-yil 3-iyun. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bir guruh fuqarolarni “Jasorat” medali bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Unga binoan o‘zining jonini xavf ostiga qo‘yib, yuksak jasorat, fidoyilik, mardlik kabi chinakam insoniylik fazilatlarini yaqqol namoyon etgani, xususan, Toshkent shahridan oqib o‘tuvchi Bo‘rijar kanalida sodir bo‘lgan

“Asl qahramonlarni ko‘pincha kinolarda ko‘rib katta bo‘lganmiz. Yoshligimizda ularga taqlid qilganmiz. Biroq oramizda ham jasorati bilan elni lol qoldiradigan haqiqiy qahramonlar borligi haqida esa doim ham o‘ylab ko‘ravermaymiz. Sharoit taqozo qilganida, ularning xatti-harakatiga qarab, odamgarchilik hali barhayot ekanini anglaymiz.

suvga cho‘kish bilan bog‘liq favqulodda va murakkab vaziyatda tezkor amaliy yordam ko‘rsatib, voyaga yetmagan qizlarning hayotini saqlab qolgan, shuningdek, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelgani uchun ikki hamyurtimiz “Jasorat” medali bilan mukofotlandi.

Toshkent shahri hokimligida Abdumannop Samiqovning oila a‘zolari va qutqaruv ishlarida yaqindan ko‘maklashgan “Bo‘rijar” sport kompleksi dovuyrak ishchisi Nurmuhammad Mamasaliyevga davlat mukofotlarini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Toshkent shahri hokimi Sh.Umurzoqov ishtirok etib, marhum qahramonning oila a‘zolariga chuqur hamdardlik bildirdi. Nurmuhammad Mamasaliyevning esa kelgusi ishlariga muvaffaqiyat tiladi.

— Bu mukofot — Abdumannop jasoratining rasmiy e‘tirofi. Xalq qalbidagi eng katta siylov uning ismi ehtirom bilan yodga olinishida, — dedi shahar hokimi. — Bunday insonlar haqida qancha yozsak va eslasak oz. Bu — insoniylik va vijdonimiz oldidagi burchimiz. U farzandlariga g‘urur, odamiylik va jasoratni meros qoldirdi.

marhum farzandlarining kim bo‘lishini xohlagan bo‘lsa, shunday qilib tarbiyalab, otaliqqa olib, voyaga yetkazamiz. U inson boshqalar uchun hayotini tikdi, qahramonlik ko‘rsatdi. Barchaga namuna bo‘ldi. Uning farzandlarini tarbiyalash va voyaga yetkazish — sharaf. O‘ylaymanki, bu farzandlar otasi kabi chin qahramon bo‘lib ulg‘ayadi, — dedi Toshkent shahri hokimi.

Asl qahramonlarni ko‘pincha kinolarda ko‘rib katta bo‘lganmiz. Yoshligimizda ularga taqlid qilganmiz. Biroq oramizda ham jasorati bilan elni lol qoldiradigan haqiqiy qahramonlar borligi haqida esa doim ham o‘ylab ko‘ravermaymiz. Sharoit taqozo qilganida, ularning xatti-harakatiga qarab, odamgarchilik hali barhayot ekanini anglaymiz. Dunyoda jaholat, loqaydlik, o‘zgalar musibatiga beparvolik kabi illatlar bo‘y ko‘rsatib turgan bir davrda bunday fidoyilik odamiylik xislatlari boqiy ekanini eslatib turadi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

► Boshlanishi 1-betda

Yangi tarmoq “Toshtemiryo‘lloyiha” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan bosh reja bo‘yicha zamonaviy muhandislik yechimlari hisobga olingan holda barpo etilmoqda.

Jomboy tumanidagi “MAN” zavodi yaqinidan boshlanuvchi yangi temir yo‘l

“Temir yo‘l vokzallaridan birini qurayotgan tadbirkor Anvar Temurovning aytishicha, besh gektar maydondagi majmuada zamonaviy temir yo‘l va avtovokzal, IT park, 200 o‘rinli mehmonxona, 300 o‘rinli xususiy maktab, 200 o‘rinli bolalar maktabgacha ta‘lim muassasasi va oilaviy poliklinika bunyod etiladi. Shuningdek, to‘qqizta ko‘p qavatli turar joy binosi qad rostlaydi.

tarmog‘i 4R-238 avtomobil yo‘lini kesib, Zarafshon daryosi bo‘ylab o‘tadi va so‘ng-ra ushbu daryo ustida barpo etiladigan ko‘prikl orqali Urgut tumaniga boradi. Temir yo‘l o‘tadigan Jomboy, Samarqand, Toyloq va Urgut tumanlarining aholi gajvum hududlarida bekatlar tashkil etiladi. Masalan, Tojikiston bilan chegaradosh Urgut tumanida joylashgan “Jartepa” chegara bojxona posti yaqinida bekat quriladi. Bu esa tojikistonliklarga yurtimiz

bo‘ylab temir yo‘l orqali sayohat qilish imkonini beradi.

— Mazkur yangi tarmoq yurtimiz temir yo‘l sohasidagi yirik loyihalardan biri, — deydi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ kapital qurilish direksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari Anvar Allamurodov. — Bu orqali nafaqat “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi korxonalarining transport tarmog‘i yaxshilanadi, balki aholi uchun ham qulaylik yaratiladi, hududda sayyohlik rivojlanadi.

HUQUQIY TAFAKKUR VA GLOBAL MULOQOT O‘ZBEKISTON YOSHLARI UCHUN INTELLEKTUAL SAKRASH MAYDONI BO‘LDI



Xalqaro hamkorlik

► Boshlanishi 1-betda

Xalqaro yoshlar yuridik forumidan ko‘zlangan maqsad va erishilgan natijalar, istiqboldagi vazifalar xususida **Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori, yuridik fanlar doktori, dotsent Axtam Yakubov** quyidagi fikrlarni bildirdi:

“Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib, vazirgacha, hokimdan tortib, mahalla raisigacha — hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur”.

Bugun bu g‘oyalar faqat so‘zda emas, balki amaliy harakatga aylandi. Mana shunday keng miqyosli g‘amxo‘rlik natijasida yoshlar huquqiy tafakkurini rivojlantirish, xalqaro muloqot malakalarini oshirish va zamonaviy huquqiy sohalarga jalb etish strategik vazifa sifatida belgilandi.



shuningdek, xorijiy davlatlarning 100 dan ortiq universitetidan 300 nafarga yaqin yosh huquqshunos talabalar ishtirok etdi.

Mazkur tadbir “Tashkent Law Spring” IV xalqaro yuridik forumi doirasida o‘tkazilib, nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yuridik ta‘lim va xalqaro hamkorlikning yangi bosqichini belgiladi.

Forum yoshlarning tashabbuslari, bilim va salohiyatiga berilayotgan e‘tibor, ularni qonun ijodkorligi, xalqaro huquqiy hamkorlik va ilmiy izlanishlarga faol jalb etish siyosatining amaliy ifodasi sifatida ta’riflandi.

Samara nimalarda ko‘zga tashlanadi?

Mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil etishi, har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qiz kirib kelishi yoshlar sohasiga investitsiya qilishning strategik ahamiyatini yanada oshiradi. 2030-yilga kelib, bu raqamning 1 millionga yetishi prognoz qilinayotgani esa ushbu sohada kompleks yondashuvni talab etadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan qator muhim vazifalar ham yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Yoshlar ta‘limi, ma‘naviyati va kasbiy malakasini oshirish borasidagi keng ko‘lamli islohotlar samarasida oliy ta‘lim muassasalari soni 77 tadan 212 taga, ya‘ni 3 barobar ko‘paydi. Oliy ta‘limga qamrov 9 foizdan 42 foizga o‘tdi. Xotin-qizlarning oliy ta‘limdagi soni 11 barobar ko‘paydi.

Xalqaro ta‘lim imkoniyatlari sezilarli o‘tdi. Hozir o‘zbekistonlik 110 ming yosh xorijda tahsil olmoqda. “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali yetti yilda AQSHning “Pechak ligasi”ga kiruvchi Garvard, Yel, Kolumbiya, Stenford, Buyuk Britaniyaning “Russell guruhi”dagi Oksford, Kembrij, Birmingem kabi 24 ta oliygohini 50 nafar yosh bitirdi. Ularda o‘qiyotgan yoshlarimiz soni esa 200 dan oshdi.

Yuridik ta‘limda yangi tashabbus

Ana shunday keng ko‘lamli islohotlar va yoshlarga qaratilgan e‘tibor fonida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamkorligida Toshkent davlat yuridik universiteti tashabbusi bilan ilk marotaba 1 xalqaro yoshlar yuridik forumi tashkil etildi. Forumda Yevropa, Osiyo va boshqa mintaqalardan 10 dan ortiq davlat vakillari,

ochish, yuridik ta‘limga sun‘iy intellekt integratsiyasini kuchaytirish, huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ommaviy targ‘ibot tadbirlarini yo‘lga qo‘yish, yoshlar ko‘chma “she‘riyat teatri”ni tashkil etish va boshqalar. Bu taktiklar nafaqat ishtirokchilar, balki xorijlik ekspertlar tomonidan ham yuqori baholalanib, O‘zbekiston yoshlarining intellektual salohiyatiga nisbatan ishonch mustahkamlanganini ko‘rsatdi.

Forumning ajralmas qismi sifatida tashkil etilgan “Millatlar festivali” nafaqat madaniyatlararo muloqotni rivojlantirdi, balki turli mamlakatlardan kelgan yoshlarga do‘stona aloqalar o‘rnatish va kelajakda hamkorlik uchun poydevor yaratish imkonini berdi.

Kun davomida tashkil etilgan o‘zbek milliy buyumlari ko‘rgazmasi, jonli kulollik namoyishi, shahar bo‘ylab ekskursiyalar, fleshmoblar, raqs va jamoaviy o‘yinlar ishtirokchilarni o‘zbek madaniyati va an‘analari bilan yaqindan tanishtirdi.

Ularning ta’kidlashicha, O‘zbekiston bugungi kunda nafaqat huquqiy islohotlar markaziga, balki yosh huquqshunoslar uchun mintaqaviy ilg‘or platformaga aylanish yo‘lida jadal harakat qilmoqda.

“Yevropa, Osiyo va Amerika qit‘asidan tashrif buyurgan huquqshunos olimlar va xalqaro tashkilotlar vakillari forumning dolzarb mavzulari, ishtirokchilarning faol muloqoti va tashkilotchilik saviyasiga yuqori baho berdi.

I xalqaro yoshlar yuridik forumi nafaqat ilk marta o‘tkazilgan tadbir, balki yangi an‘ananing boshlanishi va kelajakda har yili o‘tkazilishi belgilangan doimiy platforma sifatida o‘z o‘rnini topdi. U O‘zbekistonning global huquqiy hamjamiyatdagi rolini va



Xalqaro e‘tirof va ekspertlar bahosi

Germaniya, Fransiya, AQSH, Turkiya, Qozog‘iston, Rossiya, Janubiy Koreya, Latviya kabi davlatlarning yetakchi yuridik ta‘lim muassasalari va tashkilotlari vakillari forumda yoshlar bilan muloqot qildilar.

Jumladan, nufuzli xalqaro ekspertlar qatorida Mayami universiteti (AQSH), Turiba universiteti (Latviya), Ajou universiteti (Janubiy Koreya) va boshqalarning vakillari bor edi.

Bu esa forumning xalqaro darajadagi mavqeini mustahkamlab, O‘zbekistonning huquqiy ochiqlik, islohotlarga sodiqlik va intellektual taraqqiyot sari intilishining yorqin timsoliga aylandi.

BMT Taraqqiyot dasturi, UNODC, GIZ, Konrad Adenauer jamg‘armasi, OSCE va boshqa xalqaro hamkor tashkilotlar vakillari forumning mazmunan boyligi, mutaxassislik darajasi va tashkiliy shukhi haqida ijobiy fikrlar bildirdi.

mintaqadagi yetakchi pozitsiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining “Aziz farzandlarim! Xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlar kutayotganini hech qachon yodingizdan chiqarmang! Yurtning yuksak ishonchi va umidini to‘la oqlash, unga munosib bo‘lish dunyodagi eng ulug‘ baxtdir”, deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, ana shu ulug‘ baxt sari intilayotgan yoshlarimiz uchun forum nafaqat ta‘lim olish maydoni, balki o‘z qobiliyat va salohiyatlarini namoyish etish, xalqaro hamkorlik aloqalari o‘rnatish va kelajakda mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu faqat tadbir emas, balki yangi avlod yuristlarini tayyorlash, huquqiy tafakkur va xalqaro muloqotni rivojlantirish yo‘lidagi katta harakat bo‘lib, yosh huquqshunoslar, davlat xizmatchilari va siyosatchilar uchun innovatsiya, tajriba hamda hamkorlik platformasi vazifasini o‘taydi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Lutfulla SUVONOV yozib oldi.



Islohot odimlari

SAMARQAND – URGUT TEMIR YO‘LI QULAYLIK, SAMARADORLIK VA BARQARORLIK



Yana bir muhim jihat yuk tashish logistikasi bilan bog‘liq. Temir yo‘lda mahsulot tashish xarajatlari juda arzon. Toyloqda ham, Urgutda ham maxsus iqtisodiy zonalar mavjud, yana yangi logistika markazlari bunyod etilyapti.

Shu paytgacha bu tumanlardan mahsulotlar katta yuk tashish mashinalarida

olib ketilib, Samarqanddan yuk poyezdlariga yuklangan yoki teskarisi. Bu tadbirkorlar uchun noqulaylik tug‘dirishi bilan birga, ikki karra xarajatni ham talab etadi.

Ayni paytda 35 kilometr masofaning asos qismi tayyorlandi. Loyiha doirasida Urgut shahrida ikkita vokzal, ikkita temir-beton ko‘prikl, aholi yashash joylarida ikkita to‘xtash joyi ham barpo etiladi.

Sanoat, ishlab chiqarish, turizm, umuman, temir yo‘lining kelishi ko‘plab tarmoqlarga juda katta qulayliklar yaratadi va rivojida muhim o‘rin tutadi. Bu esa mazkur tumanlar iqtisodiyoti va odamlarning turmush tarzi yaxshilanishi uchun katta qulaylik.

Yangi tarmoq qurilishi natijasida bir kunda olti ming yo‘lovchi, to‘rt ming tonnagacha yuk tashish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, sanoatlashgan tumanlar, ya‘ni Urgut va Tayloqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni boshqa hududlarga yuborish va xorijga eksport qilishda transport-logistika imkoniyatlarini oshiradi.

Eng asosiysi, Samarqand viloyatining turizm salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

“Temir yo‘l vokzallaridan birini qurayotgan tadbirkor Anvar Temurovning aytishicha, besh gektar maydondagi majmuada zamonaviy temir yo‘l va avtovokzal, IT park, 200 o‘rinli mehmonxona, 300 o‘rinli xususiy maktab, 200 o‘rinli bolalar maktabgacha ta‘lim muassasasi va oilaviy poliklinika bunyod etiladi. Shuningdek, to‘qqizta ko‘p qavatli turar joy binosi qad rostlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, birgina temir yo‘l kelishi bilan bu hududlarda nafaqat yuk va yo‘lovchi tashish, balki obodlik, bunyodkorlik, bandlik, sayyohlik kabi yo‘nalishlar ham rivojlanadi.

Urgut tumani nafaqat ishlab chiqarish, balki turizm sohasida ham katta salohiyatga ega. Temir yo‘l kelishi aholi uzog‘ini yaqin qilish bilan birga, xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytiradi.

L.XAYRULLAYEV,
jurnalist

Taraqqiyot mezonlari

“Ayni paytda mamlakatimizda faqat 244 ta to‘qimachilik korxonasi xalqaro sertifikatga ega. Bu sohada faoliyat yuritayotgan subyektlar umumiy soniga nisbatan juda kam. Bundan tashqari, ushbu korxonalarning aksariyati Toshkent shahri va vodiy hududida joylashgan. Qolgan hududlarda esa sertifikatlashgan ishlab chiqaruvchilar deyarli yo‘q.



RAQOBATBARDOSH IQTISODIY IMMUNITET

MAHALLIY SANOATNI JAHON BOZORIGA OLIB CHIQAADI

Bugun mahalliy brendlar xalqaro bozorda o‘z o‘rnini topa boshladi. “Mall of Uzbekistan” kabi loyihalar biz uchun targ‘ibot maydonidir.

Sanoat samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki moliyaviy instrumentlardan oqilona va samarali foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Hozirgi murakkab iqtisodiy sharoitda mavjud xomashyoni chuqur qayta ishlash va qo‘shilgan qiymatni oshirish eng ustuvor vazifalardan biridir.

Ana shu maqsadda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun faktoring tizimi joriy etildi. Mazkur moliyaviy mexanizmi amalga oshirish uchun davlat tomonidan 100 million dollar ajratildi. Endi to‘qimachilik korxonalari xomashyo — kalava ipni aynan shu asosda soddalashtirilgan va qulay shartlarda xarid qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Bu esa ishlab chiqarish xarajatini kamaytirish, aylanma mablag‘dan samarali foydalanish hamda ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. Shuningdek, faktoring tizimi orqali korxonalar nafaqat tekzor pul mablag‘i oladi, balki debitorlik qarzlari bilan bog‘liq xavflarni ham kamaytiradi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlariga qarab korxonalar uchun individual limit belgilanadi. Masalan, agar bir korxona uchun 1 milliard so‘mlik limit belgilansa, faktoring kompaniyasi ushbu mablag‘ni 1-2 kunda ta‘minotsiz to‘lab beradi. Bu esa tadbirkorlarga oylab to‘lov kutmay, o‘z vaqtida mablag‘ini qabul qilib, ishlab chiqarishni uzluksiz davom ettirish imkonini beradi.

Kichik tashabbuslardan katta iqtisodiy salohiyat sari

Bir oz vaqt oldin qishloqda yashovchi sindfoshim qo‘ng‘iroq qilib, mebel ishlab chiqarishga qiziqib qolgan, buning uchun uskuna sotib olish niyatida ekanini aytdi. Oilasi temirchilik bilan shug‘ullandadi. Bu kasb avlodidan avlodga o‘tib keladi. Otasi ham temirchi. Bir vaqtlar u yasab bergan mehnat qurollaridan qishloq ahli hozirgacha tomorqada keng foydalanadi. Bugun esa davr boshqacha: qo‘l mehnati o‘rnini texnika bosmoqda, mahsulotlar turli uskunalar yordamida tez va sifatli tayyorlanmoqda.

Do‘stimning g‘oyasi jiddiyligini sezdim. Ammo bir savol beryam turolmadim: “Xomashyo va uskunani qanday olasan?”.

“Mebelsozlik sohasidagi islohotlar murakkab, lekin mantiqiy va tizimli amalga oshirilyapti. Sohaning hozirgi holati katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq bu imkoniyatdan to‘laqonli foydalanish uchun sifat, sertifikatlashtirish, logistika, dizaynerlik yechimlari va marketing madaniyati kabi yo‘nalishlarga jiddiy yondashish zarur.

Shu payt u bir oz sukut saqladi. Bildimki, biznes boshlash uchun puli yo‘q.

Oradan ko‘p o‘tmay, u yana qo‘ng‘iroq qildi. Xursand bo‘lib, uskunaga xarid qilgani, ikki hamqishlog‘imizni ishga olgani, hatto birinchi mahsulotini sotganini aytdi. Keyinchalik bilishimcha, tadbirkorlik faoliyatini boshlash bo‘yicha mas‘ullar bilan uchrashgan. Muloqotdan so‘ng unga qisqa muddatda kam foizli kredit ajratilgan. Bu chekka hududda boshlangan kichik tashabbus ertaga butunlay yangi imkoniyatlarga eshik ochishi mumkinligiga bir misol. Do‘stim ishlab chiqarishni kengaytirsa, mahsulotlarini nafaqat ichki bozorda, balki qo‘shni davlatlarda ham sotishi ehtimoldan xoli emas. Eng muhimi, bunday tashabbuslar orqali oddiy fuqarolar o‘z hayotini yaxshilash barobarida, boshqalar uchun ham ish o‘rinlari ochmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda mahalliy sanoatni diversifikatsiya qilish doirasida mebelsozlik tarmog‘i tobora muhim yo‘nalishga aylanib bormoqda. Hozirga kelib, mamlakatda 7500 dan ortiq

mebel ishlab chiqaruvchi korxona faoliyat yuritmoqda. 2024-yilning o‘zida ushbu sohaga 920 ta yangi subyektlar qo‘shildi. Sohada tayyorlangan mahsulot qiymati 6,7 trillion so‘mga yetgan, eksport esa 20 million dollarni tashkil etgan.

Bu raqamlar, albatta, ijobiy. Lekin umumiy imkoniyatlarga nisbatan yetarli emas. Mebelsoz tadbirkorlarning ko‘pi hunarmand darajasida qolmoqda. Kichik ustaxonalar katta bozorlarga chiqa olmayapti. Chunki ularda texnologik baza, mahsulot standartlari va marketing bo‘yicha yetarli ko‘nikma mavjud emas.

Shu nuqtayi nazardan, hunarmandchilikdan sanoatlashgan ishlab chiqarishga o‘tish — soha rivojida eng muhim bosqich. Endi yakka tadbirkor sifatida 5 nafargacha ishchi

Tadbirkor istasa, arzon yetkazib berilgan yog‘ochni oladi, istamasa, mustaqil tashib kelishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatini kamaytirish maqsadida 14 turdagi xomashyo, furnitura va aksessuarlar uchun 3 yil muddatga 1 foizli import boji belgilanadi. Bu, ayniqsa, kichik biznes va yangi faoliyat boshlayotgan mebelchilar uchun katta rag‘bat.

Mebel mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqish masalasi ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xalqaro sertifikat olish xarajati, xorijiy dizayner, marketolog va muhandislar ish haqining yarmi to‘lab beriladi. Bu esa mahalliy tadbirkorlarning xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatini oshiradi.



Bundan tashqari, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etayotgan mebelchilar uchun ijara maydoni kompensatsiyasi 20 kvadrat metrdan 40 kvadrat metrgacha oshirildi. Bu ularning mahsulotini samarali taqdim etish va xaridorlar doirasini kengaytirishda muhim omil.

Mebelsozlik sohasidagi islohotlar murakkab, lekin mahalliy va tizimli amalga oshirilyapti. Sohaning hozirgi holati katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq bu imkoniyatdan to‘laqonli foydalanish uchun sifat, sertifikatlashtirish, logistika, dizaynerlik yechimlari va marketing madaniyati kabi yo‘nalishlarga jiddiy yondashish zarur.

Davlat yaratayotgan imkoniyatlar muhim. Ammo ulardan samarali foydalanish tadbirkorlarning fikrlashi, texnologiyaga ochiqchiligi va ishbilamonlik madaniyatiga bog‘liq. Ana shunday mahalliy mebel mahsulotlari jahon bozorida munosib o‘rin egallashi mumkin.

Milliy merosdan — global sanoatgacha

Zargarlik sanoati nafaqat iqtisodiy foyda keltirishi, balki milliy meros, madaniyat va xalqning estetik didi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning yuksalishi mamlakatning tashqi imiji, ichki iste‘mol bozori va eksport salohiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Hozir yurimizda bu sanoatda yillik ishlab chiqarish qiymati 200 million dollarni, eksportniki esa 92 million dollarni tashkil etmoqda. Bu ham ijobiy ko‘rsatkich. Biroq mamlakatimizda yiliga 100 tonnadan ortiq oltin qazib

olinayotganini hisobga olsak, bu raqamlarda tarmoq salohiyatining ozgina qismi namoyon bo‘layotgani seziladi. Bunday farqning asosiy sabablari tarmoqning to‘liq sanoatlashmagani, mahsulot turlari cheklangani, dizayn va sifatning xalqaro standartlarga to‘liq javob bermasligi, shuningdek, marketing va branding sohalarida yetarli darajada rivojlanmayotganidir.

Bunday jarayonda texnologik jihozlar, dizaynerlik mahorat va mutaxassislar malakasi muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, uskunalarining bo‘xona to‘lovidan ozod qilinishi sohani kengaytirish, narxlarini raqobatbardosh qilishda muhim omil. Bu nafaqat yangi korxonalar tashkil etish, balki mavjud ustaxonalarni texnik jihatdan yangilashga ham turtki beradi.

Soha yuqori malaka, nozik ishlov va estetik did talab qilgani bois, xorijiy tajriba va bilimni mahalliy mutaxassislarga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dizayn, marketing va sifat nazorati kabi yo‘nalishlarda. Bilim va tajribani mahalliy muhitga moslashtirish orqali milliy zargarlik maktabini yaratish imkoni paydo bo‘ladi. Davlatimiz rahbari yig‘ilishda ushbu sohani rivojlantirish, imkoniyatlarini ishga solishga ham to‘xtalar ekan, endi zargarlik sohasida 5 shogird tayyorlash sharti bilan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish xarajati 2,5 ming dollargacha qoplab berilishini qayd etdi.

— Ozarbayjondan malakali 50 zargarni olib keldik. Kelajakda ular sonini 100 nafarga yetkazamiz, — deydi investor Nijat Guliyev. — Ular ish boshlagan fabrikada o‘zbek hamkasblari bilan tajriba almashadi. Bu ham mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari ochilishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, endi oltinni bo‘lib to‘lash asosida xarid qilish muddatining 3 yilgacha uzaytirilishi ishlab chiqaruvchilar uchun moliyaviy yengillik yaratadi. Bu, ayniqsa, kichik tadbirkorlar uchun muhim. Chunki ularda aylanma mablag‘ yetishmasligi — asosiy muammo. Bunday shart-sharoit orqali ko‘plab ustalar faoliyatini rasmiylashtirib, shaxsiy ustaxonalardan ham ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xiva, Andijon va Toshkentda zargarlik markazlari tashkil etilishi turizm, savdo va madaniyat nuqtayi nazardan to‘g‘ri qaror bo‘ladi. Biroq bunday markazlarni boshqa hududlarda ham ochish zarur. Chunki har bir hududda o‘ziga xos uslub, an‘ana va mahoratga ega ustalar bor. Bu markazlar ishlab chiqarishdan tashqari ta‘lim, ko‘rgazma va savdo nuqtasi vazifasini ham bajarishi kerak.

Zargarlik sanoati boshqa sohalardan farqli ravishda tashqi bozorda nafaqat sifat, balki tarixiy va madaniy ramzlar bilan sotiladi. Demak, “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” belgisi bo‘lishi uchun mahsulot dizayni, tarixiy asosi va madaniy mohiyati bo‘lishi kerak. Milliy brendlar yaratish va xalqaro darajada tanitish zarurligidagi ustuvor vazifalardan.

Hozirgi sa‘y-harakatlar to‘g‘riligi kunday ravshan. Biroq natijaga erishish uchun imtiyozlar bilan birga tizimli va mukammal islohotlar zarur. Bu jarayon ta‘lim, dizayn, marketing, sifat nazorati, resurslarga yetishish va tashqi bozor talablariga moslashishni o‘z ichiga olgan murakkab va zarur bosqichlarni talab qiladi.

Hududiy nomutanosiblikning bartaraf etish, mahalliy maktab va ustalarni qo‘llab-quvvatlash orqali yagona sanoat tuzilmasini yaratish zarur. Masalan, Buxoro va Samarqand kabi tarixiy shaharlardagi noyob an‘analarni hozirgi dizayn

talablariga moslashtirish orqali milliy brendlar yaratish mumkin.

Marketing va tashqi savdo siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Zargarlik mahsulotlari ko‘p hollarda emosional va madaniy ahamiyatga ega tovarlar sifatida baholalanadi. Shu bois, ularni nafaqat sifat va narx bilan, balki tarix, ramz va milliy xususiyatlar bilan ham sotish mumkin. Milliy brendlar xalqaro ko‘rgazmalarda o‘z dizayni, ma‘naviy mazmuni va estetikasi bilan ajralib turishi kerak.

Shu bilan birga, raqamli platforma va elektron tijoratni rivojlantirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu mahsulotlarni eksport qilishni yengillashtirib, xorijiy xaridorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Mahalliy brendlarni jahon darajasiga olib chiqishning eng samarali va tezkor yo‘li — shu.

Zargarlik sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish ham muhim. Xomashyoni xarid qilish, litsenziyalash, sertifikatlash va eksport qilishdagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish lozim. Aks holda, ko‘plab ustalar norasmiy faoliyatni afzal ko‘radi, bu esa davlat iqtisodiyoti va eksport ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir qiladi.

Ijtimoiy jihatdan ham zargarlik sanoati katta ahamiyatga ega. Bu sohada ko‘plab yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlar uy sharoitida yoki kichik ustaxonalarda ish boshlash imkoniga ega bo‘ladi. Natijada aholi bandligi oshadi, daromad manbalari kengayadi va ijtimoiy barqarorlikka erishiladi.

Sifat, raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida

O‘zbekistonda qurilish sohasi so‘nggi yillarda iqtisodiyotning eng faol tarmoqlaridan biriga aylandi. Bunyodkorlikning kengayishi nafaqat shaharsozlik va infratuzilma rivojiga, balki sohani ta‘minlovchi tarmoqlarga, jumladan, qurilish materiallari sanoati rivojiga ham turtki bermoqda. Bu jarayonda sifat, barqarorlik va raqobatbardoshlik masalalari birinchi o‘ringa chiqmoqda.

Ayni paytda qurilish materiallari sohasida faoliyat yuritayotgan 10 mingga yaqin korxona mavjud bo‘lsa-da, ularning mahsuloti har doim bozor talablari va zamonaviy standartlarga to‘liq javob bermayapti. Xususan, sifat va xaridorliklarni ta‘minlashda samarali nazorat, standartlashtirish hamda reyting tizimlari yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Shu bois, “Shaffof qurilish” platformasida maxsus reyestr va sifat reytingi joriy etilishi ishlab chiqaruvchilarni raqobat muhitiga kiritish bilan birga, mijozlar uchun tanlov imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, developerlar uchun aylanma mablag‘ taqchilligi qurilish loyihalarini kechikishi yoki to‘liq amalga oshmasligiga sababchi bo‘layotgan asosiy to‘siqlardan. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan maqsadli kreditlar ajratilishi, ayniqsa, mahalliy lashtirish va import o‘rnini bosuvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ayrim qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarga qulay moliyaviy sharoitlar yaratilishi mahalliy sanoatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, energiya tanbarxi yuqori bo‘lishi mahsulot narxiga bevosita ta‘sir qilmoqda. Masalan, sement, g‘isht va shifer kabi an‘anaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarishda energiya sarfi juda katta. Shu sababli, ushbu tarmoqda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish va energiyadan samarali foydalanishni rag‘batlantirish muhim vazifalar qatorida turadi.

Yig‘ilish davomida qurilish materiallari sanoatidagi muammolarga amaliy yondashuv asosida yechim topish masalasi alohida ta‘kidlandi.

Qurilish materiallari sanoati energetika, logistika hamda eksport salohiyatini qamrab olgan strategik tarmoqdır. Tarmoqdagi tizimli islohotlar sifatini oshiradi. Bu jarayonda sifat va raqobatdoshlikni oshirish, yangi texnologiyalar va moliyaviy yordam mexanizmlarini keng joriy etish muhim.

Hozir avtomobili bor ham, yo‘q ham bir mavzu — joriy yil 1-iyundan yurtimizda yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima ballari hisoblash tizimi ishga tushgani haqida gapirib, fikr bildiryapti. Aslida, bu mavzu muhokamasi ijtimoiy tarmoqlarda bir necha oy ilgari boshlangan. Fikr va e‘tirozlar “12 ballik tizim” mavzusi doirasida aylanmoqda. Avvaliga sinov tariqasida qo‘llanilgan tizim iyun oyidan amalda joriy etildi.

Endi haydovchilar yangi tizimga moslashishiga to‘g‘ri keladi. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ayrim xabarlariga ko‘ra, jarima ballari yozish allaqachon boshlangan. Hukumatning tegishli qarori bilan kiritilgan yangi tizim yo‘llardagi qo‘pol qoidabuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish uchun zarurat bo‘lgani aytilmoqda. Haydovchilarning bu boradagi fikri esa boshqacharoq. Ballar ularga qo‘shimcha bosim, yo‘llarda bemalol harakatlanishiga yana bir to‘siq bo‘lishidan norozi. Oddiy odamlardan so‘rasangiz, qoidabuzarliklar uchun jazo choralari qancha qat‘iy bo‘lsa, shuncha yaxshi. Hamkasblarimning biri esa jarima ballarini bevosita YPX inspektorlari yozishi korrupsiyaga yo‘l ochishi mumkinligini ta‘kidladi. Umuman, fikrlarning har birida qaysidir ma‘noda jon bor. Xulosa chiqarishdan oldin esa ozgina tahlil qilib ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Qizil chiroq!

12 ballik tizimning shakli ham ana shu 12 raqami atrofida uzilgan. Ya‘ni 12 oy ichida 12 ball to‘plagan haydovchiga nisbatan “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeks moddolari asosida tegishli tartibda jazo choralari qo‘llaniladi. Bu ballar haydovchi tomonidan sodir etiladigan yo‘l harakati qoidabuzarliklari

bo‘yicha hisoblanadi. Ballarni qo‘llash va hisoblash tartibi Vazirlar Mahkamasining joriy yil 6-maydagi tegishli qarori bilan belgilangan. Yangi tizim qoidabuzarliklarni aniqlashning qo‘shimcha shakli bo‘lib, amaldagi foto va videokameralar qayd etib boradigan jarimalardan tashqari hisoblanadi. Ya‘ni radarlar yozadigan jarimalar uchun haydovchilar odatdagidek to‘lovlarni amalga oshirishda davom etadi, ammo bu qoidabuzarliklar ballar bilan baholannmaydi. Jarima ballari esa faqat Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari (YHXX) tomonidan aniqlangan qoidabuzarliklar va rasmiylashtirilgan ma‘muriy bayonnomalar bo‘yicha yoziladi. Buning uchun jarima to‘lanmaydi, ammo har bir ball haydovchi hisobiga yozib boriladi. Bir yil ichida 12 ball to‘plagan haydovchi (ijobiy ma‘noda emas) 6 oydan kam bo‘lmagan va 3 yilgacha muddatga haydovchilik guvohnomasidan mahrum bo‘ladi. Ballar qoidabuzarlik darajasiga qarab 0,2 ball dan 2 ballgacha tartibida hisoblanadi. Masalan, tezlikni oshirish 0,5 ball dan 2 ballgacha (oshish darajasiga qarab), qizil chiroqda o‘tish 1 ball, yo‘l transport hodisasi joyini tark etish 2 ball yozilishiga sabab bo‘ladi va hokazo. Buni turlicha hisoblab ko‘rish mumkin: yil davomida to‘xtash yoki to‘xtab turish qoidalarini 60 marotaba buzish (0,2 ball) yoki yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi guruh bo‘lib harakat qilishda 8 marta qatnashish (1,5 ball), yoxud transport vositalari haydovchilarining svetoforming taqiqlovchi signaliga yoki yo‘l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo‘ysunmasdan 12 marta o‘tish (1 ball) orqali 12 ballni to‘plab olish hech qanday emas. Yuqoridagi 60 raqami juda kattadek, yil davomida shuncha marta qoida buzish imkonsizdek ko‘rinadi. Hatto “12 ballni olish oson emas, buning uchun ashaddiy qoidabuzar bo‘lishi kerak” deb keltirilayotgan xabarlar ham haqiqatdek tuyuladi. Ammo eng kam ballni hisoblaganda shunday. Haydovchi esa yo‘lda faqat bir turdagi qoidabuzarlikni sodir etmaydi va ayrim qoidabuzarliklar uchun hatto 2 ballgacha berilishi belgilangani 12 ballni osongina to‘plash imkoniyatini oshiradigandek. Vaholanki, ba‘zi qoidabuzarliklarni sodir etishda yo‘l infratuzilmasining soz holatda emasligi sabab bo‘ladi. Mutasaddilarning aytishicha, ballik tizimda bu jihatlar e‘tiborga olinan.



— Ballik tizim faqatgina inson omili bilan sodir etiladigan va yo‘lovchilarning hayotiga xavf soladigan qo‘pol qoidabuzarliklar uchun joriy etildi, — deydi O‘zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti YHXX axborot xizmati boshlig‘i Zoyir Yo‘ldoshev. — Ya‘ni uning ichiga yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq, masalan, yo‘l chizig‘ini bosish kabi qoidabuzarliklar kiritilmagan. Ballar qo‘pol qoidabuzarliklar uchun hisoblanadi. Aytaylik, svetoforming qizil chirog‘ida harakatlanish, ruxsat etilmagan joyda to‘xtab turish kabilar faqat inson omili bilan bog‘liq va, afsuski, bunday qoidabuzarliklarni muntazam sodir etib kelayotganlar bor. Qo‘pol bo‘lsa ham aytaman, bir yilda 10 marta qizil chiroqda harakatlanadigan haydovchini potensial qotil deyish mumkin. U qanchadan qancha insonlar hayotiga xavf solyapti. Bunday haydovchilar yoki yo‘l harakati qoidalari haqida bilmaydi, yoki bilsa ham ularga amal qilmaydi. Bepisandlikning o‘zi jiddiy qoidabuzarlik aslida. Keyingi yillarda tahlil qilingan shu kabi holatlarga chek qo‘yish zarurati yurtimiz amaliyotida ballik tizim kerakligini ko‘rsatdi. Bunday tajriba Fransiya, Rossiya, Xitoy, Ozarbayjon, Qozog‘iston singari ko‘plab davlatlarda mavjud. Shu bois, bizda ham yangi tizim bo‘yicha tegishli qonun va qonun asosida hukumat qarori qabul qilindi.

harakati qoidalariga e‘tibor bermasligi oqibatida kelib chiqqan. Bu ham bizga bir ogohlantiruv signalidek. Ya‘ni svetoforming sariq chirog‘i — ogohlantiruvchi belgisida turar ekanmiz, gaz yoki tormozni bosish har kimning ixtiyorida. Qoidabuzarliklar uchun esa jazo berilishi kerak. Jazo choralarini kuchaytirish zarurati ham tabiiy jarayon. Mutasaddi aytganidek, bir necha o‘n marotaba qoida buzib, moddiy to‘lov bilangina qutulib qolayotgan haydovchilar jamiyat uchun ham zararli. Qonuniy choralar esa haydovchilarni yanada ogohlik va hushyorlikka chaqiradi. Ballik tizimga ko‘ra, har bir qoidabuzarlik maxsus E-jarimaball elektron moduli orqali avtomatlashtirilgan hisob tizimida inson omilisiz hisoblab boriladi. Haydovchilar o‘z ballarini shu tizim orqali yoki rasmiy mobil ilova yordamida mustaqil kuzatib borishi mumkin. Ma‘lumotda to‘plangan jarima ballari, qabul qilingan qaror raqami va sanasi kabilar ko‘rinadi. Agar ballar soni 8 tadan oshsa, haydovchiga SMS orqali ogohlantiruv yuboriladi. 12 ball to‘planganda, ma‘lumot ma‘muriy chora ko‘rish masalasini ko‘rib chiqish uchun sudga yuboriladi. Haydovchi sudga bayonnomaga qarshi shikoyat bildirishi mumkin, asosli bo‘lsa, qaror va ballar bekor qilinadi. Sud qarori ham E-jarimaball tizimiga yuklanadi va ballar avtomatik tarzda o‘chiriladi. Aksincha holatda esa haydovchi 6 oydan 3 yilgacha muddatga haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilinadi. Jarima ballari asosida transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarning elektron ma‘lumotlar bazasini yaratish ham ko‘zlangan.

Yashil chiroq!

Bir tanishim uzoq yillar ishlab, sira mehnat ta‘tili olmagani haqida g‘ururlanib gapiradi. Boshqa biri esa bankdan umuman kredit olmagani va bu muammoga yaqinlashishni ham istamasligini aytadi. Yana biri hayoti davomida sud ishlari yaqin bormaganidan xursand, ishonsangiz, shu paytgacha “Biror marta radamga tushmaganman” degan haydovchini uchratmadim! Bu bizning yo‘l harakati qoidalariga bepisand qarashimiz bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Hatto bu bolalikdan shakllangandek. Maktab darslarida

Bir hudud – bir mahsulot

VODILLIKLARNI BOY QILAYOTGAN ne mat

Farg‘ona tumanidagi Vodil qishlog‘ida malina yig‘im-terimi mavsumi qizg‘in pallaga kirdi. Mahsulotning bozori chaqqon. Bir kilogramm malina ko‘tarma narxda 18-20 ming so‘mgachga oshib, unda qishloq xo‘jaligi kooperativlarini tashkil etish, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, eksport qilish yo‘nalishida kooperativ a‘zolariga qat‘iy imtiyozlar belgilangan.

— Bunda shartnoma asosida eksportyorga zamonaviy qadoqda mahsulotni tayyorlab bergan kooperativ har bir qadog‘i uchun 3000



so‘mgacha kompensatsiya olish imkoniyatiga ega, — deydi Farg‘ona viloyati O‘simliklar kabinosi va himoyasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rantinosi Eldor Tursunqulov. — Xarajatlar “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan qoplab beriladi. Bir soliq davrida mahsulotlarni zamonaviy qadoqlarda realizatsiya qilgan tadbirkorlarning ijtimoiy va foyda solig‘i 1 foiz etib belgilandi. Agrar soha vakillari qo‘llab-quvvatlash uchun 5 gektardan ortiq yerga ega dehqon va fermer xo‘jaliklariga 20 sotixgacha bo‘lgan maydonda qayta ishlash, saralash uskunalarini, muzlatkichlar qurish kabi ko‘plab imtiyozlar berilgani eksport salmog‘ini oshirish, geografiasini kengaytirish imkonini bermog‘da.

Tajribali bog‘bon Elyor Nishonov “Vodil Raspberri 555” qishloq xo‘jaligi kooperativini tashkil etdi. Bog‘idagi malina hosilini xorijga eksport qilish maqsadida “Vodil” brendi ostida zamonaviy gofra qutilarga qadoqlamoqda. Unda brend nomi, tadbirkorning to‘liq manzili hamda QR-kod joylashtirilgan. Bu mahsulotning sifat jihatidan xorijiy davlatlar talabini qondirish imkonini berdi. — O‘tgan mavsumda 14 gektar yerda Italiyaning 12 navdagi malina ko‘chatlari yetishtirishni yo‘lga qo‘ydik, — deydi “Alpomish Xosiyatxon” bog‘dorchilik fermer xo‘jaligi rahbari Elyor Nishonov. — Yangi navlar mahalliy iqlim sharoiti-



timizga tez moslashdi, hosil sifati yuqori. Mevasi yirik, qattiq. Bu mevani uzoq vaqt saqlash va eksportga chiqarishda o‘ziga xos qulayliklar bermoqda. Dastlab 2 ming tup yangi malina ko‘chatlari olib kelganimiz. Bugunga kelib ular 10 ming tupdan oshdi. Har bir ko‘chatdan 3 kilodan 5 kilogrammgacha hosil terib olish mumkin. Issiqxonada malina yetishtirishni ham yo‘lga qo‘yganimiz. Bu innovatsion usul dekabr oyiga qadar mahsulot yetishtirish va

“Bir hudud — bir mahsulot” tamoyili asosida fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalangan past hosilli, paxta va g‘alladan qisqartirilgan, aholiga uzoq bo‘lmagan hududlarda ochiq auktsion savdolar asosida ajratilgan maydonlarda ham malinachilik tarmoqlari tashkil etildi. — Shu kunga qadar ijtimoiy daftarlarga kiritilgan ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj va doimiy ish bilan band bo‘lmagan 52 fuqaroga 10 sotixdan 15 sotixgacha bo‘lgan ekin

maydoni ijara asosida birliktirib berilgan, — deydi “Dilkusho” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Abduborik Halimov. — Bunday tashqari, mahallamizdagi 1216 ta xonadonning deyarli har bir tomorga xo‘jaligida malina yetishtiriladi. Yig‘im-terim mavsumida ishchi kuchi yetishmaydi, qo‘shni hududlardan qo‘shimcha ishchilar jalb etildi. Sababi, keyingi yillarda mahsulot yetishtirish bilan band aholi qatlami teng barobar ko‘paydi. Mahsulot qanchalik ko‘p bo‘lsa, sifati yuqori bo‘ladi, xaridorlar ko‘payadi. Shu maqsadda xorijiy navlarni mahalliydagi, yangi ish tajribalarni ommalashtirishga alohida e‘tibor beryapmiz. “Dilkusho” mahalla fuqarolar yig‘inida yashab kelayotgan Akbar Meliboyev mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlardan. Unga yashash joyiga yaqin hududdan malina plantatsiyasi tashkil etish uchun 10 sotix yer ajratib berilgandi. Yaxshi niyatda ekilgan nihollar bugun qiyy‘os hosilga kiribdi. — Birinchi hosildan 50-55 million so‘mdan ortiq daromad olishni ko‘zlab turibmiz, — deydi tomorga ishlari bilan andamon Akbar. — Kuzgi hosil ham mo‘l va sifatli bo‘lishi uchun hozirdan taraddud ko‘ryapmiz. Ekinlar tagini yumshatish, mahalliy o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, suvga qondirish muhim amallardan. Eng muhimi, oilam, ota-onam yonidaman. Daromad cho‘g‘i ham chakki emas. Yaratib berilgan imkoniyat, imtiyozlar tufayli uy-joyimni tikladim, farzandlarim bog‘chaga boryapti. Bu yil mashina olishni maqsad qilganman. Aytishlaricha, ko‘hna qishloq dehqonchilik madaniyatiga bu noyob va foydali ekin turi kirib kelganiga sakson yildan oshgan. Emishki, vodillik yigiti Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng uyiga qaytayotib, o‘zi bilan uning ko‘chatini olib kelgan. O‘simlik salqin havo va nam tuproqda yaxshi rivojlanadi. Shu bois, so‘lim Vodilning musaffo havosi ushbu ekin turi rivojlanib, daromad manbaiga aylanishida o‘ziga xos o‘ringa ega. Malina nafaqat daromad manbai, mazali ta‘mi, balki shifobaxsh xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Uning mevasi immunitetni mustahkamlashga yordam beradi, keksayishni sekinlashtiradi, yog‘larni eritadi, ovqat hazm qilishni me‘yorlashtiradi, shamollash, saraton yuzaga kelishining oldini oladi, qondagi qand miqdorini nazorat qiladi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Taqdimot



BUYUK ALLOMALAR YURTI

MUQADDAS KUTUBXONAGA “SAHIHI BUXORIY” VA “SUNANI TERMIZIY” SHARHLARI TORTIQ QILINDI



Muzaffarxon JONIYEV,
Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Boshlanishi 1-betda

2023-yilda esa O‘zbekiston fuqarolari uchun umumiy haj kvotasi 12 mingdan 15 mingtaga oshirildi. Bu yilgi “Haj-2025” dasturi bo'yicha marosimlarni bajarish istagida bo'lgan ziyoratchilar O'zbekistonning 10 ta mintaqaviy xalqaro aeroportidan muqaddas manzillarga yetkazildi. Hozirgi kunda 15 ming 200 nafarga yaqin o'zbekistonlik musulmonlik burchini ado etish, xalqimiz va mamlakatimizning tinchligi hamda taraqqiyoti uchun duo qilib, muqaddas shaharlarda bo'lib turibdi. Ayni paytda ularga 300 ga yaqin malakali guruh rahbari, 50 nafar oliy toifali shifokor, oshpazlar, tarjimon va boshqa ko'makchilar hamrohlik qilmoqda. Ayniqsa, yurt rahbari tomonidan ziyoratchilar holidan xabar olib turilishi yuksak e'tiborning o'ziga xos namunasi bo'ldi.

Prezidentimizning 2017-yil 14-fevraldagi hamda 2017-yil 27-martdagi qarorlari asosida Imom Termiziy va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi.

Ularining asosiy vazifalari islom dini, Qur'oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma'naviy asoslarini, Imom Termiziy hamda termiziy allomalar, yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, hadis ilmining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan vatandoshimiz Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ulkan ilmiy va diniy merosini o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish orqali xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilishdan iborat.

Joriy yil haj safari mobaynida Imom Buxoriyning yuqoridagi markazlari tomonidan nashrga tayyorlangan “Sahihi Buxoriy” va Imom Termiziyning “Sunani Termiziy” asarlari sharhlarining 1-4-jildlari Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) abadiy qo'nim topgan, butun dunyo musulmonlarini haj va umra ziyoratdagi asnosida bir joyga to'plagan zamin — Madinai munavvarada joylashgan Masjidun Nabaviy kutubxonasiga topshirildi.

Haj ziyoratidek muborak safar jarayonida Masjidun Nabaviy kutubxonasida islom sivilizatsiyasida muhim o'rin tutgan ulug' allomalarimizning ilmiy meroslaridan iborat, o'zbek tilidagi adabiyotlarga mo'ljallangan “O'zbekiston burchagi” tashkil etilib, “olti sahih hadis”dan sanalgan “Sahihi Buxoriy” va “Sunani Termiziy” sharhlarining 1-4-jildlari taqdim etildi. Kitoblar Masjidun Nabaviy kutubxonasida xorijiy tillar bo'limi boshlig'i Ahmad Naim Mulla tomonidan qabul qilib olindi.

Tadbir jarayonida “Sahihi Buxoriy” va “Sunani Termiziy” asarlarining “olti sahih hadis” darajasidagi o'rni xususida to'xtalilib, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning islom dini taraqqiyotidagi xizmatlari alohida e'tirof etildi. Jumladan, Masjidun Nabaviy kutubxonasida bo'lim boshlig'i Ahmad Naim Mulla islom olamidagi 6 buyuk muhaddisdan

2 nafari aynan Movarounnahrda yetishib chiqqani bu zaminda islom bilimlari barakasi yuqoriligidan dalolat ekanini ta'kidladi.

Shu bilan birga, u bugungi kunda O'zbekistondagi diniy bag'rikenglik siyosatini yuqori baholab, kutubxonaga taqdim etilgan o'zbek tilidagi ushbu hadislar to'plamlari sharhlari haj va umra ziyoratiga keluvchilarga muhim manba bo'lib xizmat qilishini aytdi.

Tadbir jarayonida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, hadislar to'plami qatorida bugungi O'zbekiston hududida tug'ilib, voyaga yetib, ilm o'rganib, shu zaminda abadiy qo'nim topgan Imom Buxoriy va Imom Termiziyning “Sahihi Buxoriy” va “Sunani Termiziy” asarlari bu buyuk allomalarning o'z ona tilida mazkur kutubxonadan joy olishi iftixor tuyg'usini uyg'otish bilan birga, mamlakatimizning islom sivilizatsiyasidagi o'tmishi va bugungi o'rniini yaqqol ko'rsatib berishi shubhasiz.

Nuroniy otaxon va onaxonlarimiz haj ibodatini ado etarkan, Yaratgan zotdan elimizning farovonligi yo'lida kunu tun xizmatda bo'lgan davlatimiz rahbari haqqiga duoi xayrlar qilmoqda. Tilda shukronalik bilan elimizning quvonchi bundan-da ziyoda bo'lishni tabarruk maskandan turib, Yaratgandan so'rashning o'zi katta baxtdir. Axir yaqin tarixda ajdodlarimiz o'z otabobosi bo'lmish Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Imom Nasafiy va So'fi Olloyordek ulug' zotlarning boy ma'naviy merosini o'qishiga ta'qib bor edi.

Bugun esa diniy-ma'rifiy yo'nalishda ajdodlarimiz yozgan yuzlab kitoblar o'zbek tilida, sharhlari bilan yurtdoshlarimizga tortiq qilinmoqda. Xalqimizning azaliy orzu va ehtiyojlarini inobatga olgan holda diniy-ma'rifiy sohada jadallik bilan kechayotgan islohotlar esa Yaratgan zotga behisob shukronalar aytishimiz uchun omildir. Ajdodlarimizning armonlari bugun usharmoqda.

“
Yaqinda Prezidentimiz Samarqandga tashrif buyurib, Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Butun islom olamida Imom Buxoriyning hurmati yuksak, uning maqbarasini ko'rish istagidagi insonlar ko'p. Shu bois, ziyoratchilarga sharoitlarni kengaytirish maqsadida bu yerda yangi majmua barpo etilmoqda. Tashrif chog'ida Prezidentimiz qurilishning borishini ko'zdan kechirdi.

Majmuaning umumiy maydoni 44 gektar etib qayg'aytirilgan. Hozirgi kunda mo'qabar maqbara, 10 ming kishilik masjid, 4 ta minora qurib bitkazilgan. Yangi majmua ziyorat bilan birga ma'rifat, tarbiya, ibrat o'chog'i bo'ladi. Muzey, ma'muriyat, mehmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish binolarini o'z ichiga oladi. Peshtoqlar va ayvon devorlariga “Sahihi Buxoriy”dan hadislar bitiladi.

Yoshlarimiz ushbu islohotlarga befarq bo'lmay, ilmiy va amaliy faoliyati bilan elimiz farovonligi yo'lida tinmay mehnat qilishi, ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi tushunchalarning mohiyatini anglab, shunga munosib yashashi har qachongidan dolzarblik kasb etmoqda. Biz dunyoda O'zbekiston buyuk siymolar yurti ekanini munosib voris sifatida ko'rsata olsak, yurtimiz yanada farovon, xalqimiz shod, hayotimiz mazmunli bo'lishi tabiiy hol. Chunki Alloh taolo tili, dili va amali bilan shukr qiluvchi bandalariga o'z ne'matlarini yanada ziyoda qilib berishni va'da qilgani ayni haqiqat.



Nuqtayi nazar

“

Milliy kontent deganda faqat boshdagi do'ppi tushunilmaydi. Atlas libos yoki chopon kiydirish, belbog' bog'lash bilan kontent milliy bo'lib qolmaydi. Aslida, “milliy” so'zi kontentning g'oyasiga nisbatan ishlatilishi kerak. Obrazlar do'ppi yoki chopon kiyishi, ko'rinishi milliy bo'lishi mumkin, lekin kontentning g'oyasi, qahramonlar ilgari surayotgan maqsad milliyligimizga mos bo'lmasa, undan yomoni yo'q. Ishlanayotgan ba'zi multfilmlarda ana shu jihat inobatga olinmayapti. Chunki milliy kontent deganda ijodkorlarimizning ko'z oldida, birinchi navbatda, milliy libos gavdalanadi.

► Boshlanishi 1-betda

G'OYASI VA MAZMUNI QANDAY BO'LISHI KERAK?

MILLIY KONTENT DEGANDA FAQAT DO'PPI TUSHUNILMAYDI

Jahongir AHMEDOV,
Bolalar kontentini rivojlantirish markazi direktori:

— Milliy kontent degan gaplar juda ko'p va xo'b gapirildi. O'zi milliy kontent nima, uning mazmuni, g'oyasi qanday bo'lishi kerak degan savollar hamon bahsli. Ayniqsa, bolalar uchun tayyorlanadigan milliy kontent tamomiga muhtoj.

Qanchalik rivojlanmasin, tolerant, bag'rikeng bo'lmasin, har bir millatning o'zligini saqlab qolishga intilishiga ko'p guvoh bo'lganmiz. O'zbekiston — dunyoga ochiq davlat. Yurtdoshlarimiz istagan mamlakatga borib kelmoqda, diyorimizga kelayotgan sayyohlar yildan yilga ko'paymoqda. Demak, madaniyatlar, qadriyatlar qorishuvi yuz beryapti. Shu nuqtayi nazardan, axborot makonidagi bolalar tarbiyasi va sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladigan kontentni tahlil qilib turish foydadan xoli bo'lmaydi.

Millatning ruhi, ma'naviy dunyosi avloddan avlodga, avvalo, axborot makoni orqali o'tadi. Bolalar multfilmlar va boshqa ekran asarlari orqali o'zining millatga mansublik tuyg'usini, qadriyatlarini, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchasini shakllantiradi.

Shuning uchun har bir kontent, har bir ekran asari orqali bola ongida “Mening millatim, mening oilam, mening vatanim va mening qadriyatim bor” degan tushunchalarni shakllantirish lozim.

Milliy kontent deganda faqat boshdagi do'ppi tushunilmaydi. Atlas libos yoki chopon kiydirish, belbog' bog'lash bilan kontent milliy bo'lib qolmaydi. Aslida, “milliy” so'zi kontentning g'oyasiga nisbatan ishlatilishi kerak. Obrazlar do'ppi yoki chopon kiyishi, ko'rinishi milliy bo'lishi mumkin, lekin kontentning g'oyasi, qahramonlar ilgari surayotgan maqsad milliyligimizga mos bo'lmasa, undan yomoni yo'q. Ishlanayotgan ba'zi multfilmlarda ana shu jihat inobatga olinmayapti. Chunki milliy kontent deganda ijodkorlarimizning ko'z oldida, birinchi navbatda, milliy libos gavdalanadi. Qahramonlarimizning dunyoqarashi, g'oyaviyligi milliy bo'lishi lozim. Bolalarimiz ulardan milliy g'oyani olishi kerak. Mana shu masalalar muhokamaning bosh mavzusi bo'layotgani — asosiy voqea.

Bolalar kontenti — kelajak avlodning dunyoqarashi, tarbiyasi va qadriyatlarini shakllantiruvchi eng ta'sirchan vosita. Biz kattalar — bobo va buvilarimiz aytgan etaklar orqali yaxshilik bilan yomonlikni ajratishni, qaysi yo'l to'g'ri, qaysi yo'l xato ekanini anglab ulg'ayganimiz. Bugun esa bolalarimizga bu saboqni telefonlar, gadjetlar va animatsion qahramonlar beryapti.

Afsuski, bolalarimiz bugun, asosan, chet el mahsulotlari — ularning qarashlari, qahramonlari va tarbiya usullari bilan ulg'aymoqda. Milliy kontent esa hali yetarli emas. Shuning uchun bu yo'nalishda jiddiy va qat'iy choralar ko'rish vaqti allaqachon kelgan. Har birimiz uyga kirar ekanimiz, xohlaymizmi-yo'qmi, bolalarimiz o'yinchog'i bo'lgan gadjetlar, smartfonlarga duch kelamiz. Yaxshilik bilan yomonlik, yovuzlik bilan ezkulik o'rtasidagi kurash hamda ular nima ekan haqidagi tushuncha menda bobodan, buvimdan eshitgan etaklar orqali shakllangan. Lekin bugungi bolalarda bu tushunchalarni xorijiy kontentlar shakllantiryotir. Ular esa bir necha yuzlab seriyadan iborat. Ota-onalar boshidagi 5-6 ta seriyani ko'radi, qolganiga e'tibor bermaydi. Lekin asosiy keyin davom etadi.

Biz tomosha qilgan multfilmlarda salbiy qahramonlarning ko'rinishi bor edi. Ular dahshatli, yovuz qiyofada bo'lardi. Bu qiyofalar hozir ijobiy qahramonga aylantirilgan. Bolalar bugun vahshiy qahramonlarni yaxshi ko'ryapti va ular asosida yasalgan o'yincholarni o'ynayapti. Shuni sezmayapmiz. Bugun bizning bolaligimizda yovuz deb hisoblangan qahramonlar xorijiy kontentlarda ijobiy qahramonlarga aylantiriladi. Ya'ni ular tishlaydi, yeydi, o'ldiradi, bo'kiradi, cho'kiradi. Bolalarimizda vahshiylik — bu me'yor degan ko'nikmani shakllantirib qo'yapti.

Dunyo bo'yicha har soniyada 12 bola internetga ulanadi. Bir daqiqada 3,5 million videorolik YouTube tarmog'iga yuklanadi. Ularining 30 foizi turli zo'rvonlik,



MILLIY KONTENT

BU BOLALAR BILAN BIRGA KATTALARGA HAM BIRDEK DAXLDOR MASALA

Mansur BEKMURODOV,
sotsiologiya fanlari doktori, professor:

— Prezidentimiz qarori bilan Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilingani farzandlarimizni yot g'oyalardan himoya qilish, urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalash, ertamiz egalari qalbida vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlardan bo'ldi.

Chunki bu bolalar bilan birga kattalarga ham birdek daxldor masala. Vatani mustaqilligi uning badiiy jihatdan qanday talqin etilishi bilan bog'liq. Urf-odat, an'analar, rasm-rusumlar bilan birga yozma matnlar millatning xarakterini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Badiiy obrazlar orqali talqin, idrok etiladigan holatlar milliy kontent deb ataladi.

Milliy kontent katta kuchga ega. U mazmuni va g'oyalarining qudrati bilan millatning xarakterini bemisil darajada o'zgartirishi, ma'naviy boyishi yoki qashshoqlashuviga sabab bo'ladi. O'tgan asrning 50-yillari oxiri — 60-yillari boshida suraga olingan “Mahallada duv-duv gap” filmida o'zbek xalqining nechog'liq bag'rikengligi, hayotining mazmundorligi, jamoaviy ruhining kuchligi, eng muhimi, milliy xarakterimizning o'zgarishlarga tayyorligi, qarama-qarshilik kurashi fonida xalqimizning o'z urf-odatini, an'analari va milliy o'zligiga sodiq qola bilishidan iborat mental xususiyatlar juda go'zal



Ziyolilarga yetuk asarlar uchun yaxshigina haq to'lanishi lozim. Shundagina mag'zi to'q, kishilarning tafakkurini o'zgartiradigan barkamol asarlar yaratiladi. Hozir shiddat bilan rivojlanyapmiz. Ammo odamlarda shukrona yetishmayapti. Nima uchun? Shukronalikka targ'ib etadigan milliy kontent, roman, qissa, asarlar yetishmaydi. Zo'r roman yoki qissa yozdimi, uning targ'iboti bo'lishi shart. OAVda mutaxassislar, ekspertlarning shu asar haqidagi tahlillarini yoritish kerak.

Milliy kontent yaratayotgan odamlarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, zaruriy asarlar yaratish bo'yicha buyurtma berish tartibini joriy qilish, oldindan muayyan mavzu bo'yicha ishlayotgan yozuvchilar, olimlarga subsidiya ajratish amaliyotini ijodiyotga kiritish maqsadga muvofiq.

Hozir milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish uchun odamlarda standart tafakkurni shakllantirish kerak. Ana shu tamoyil buzilyapti. Odamlar millat, an'ana, urf-odat, ta'lim sohasi holati va istiqbol xususida har xil xulosalar chiqarmoqda, turlicha fikr yuritmoqda. Tabiiyki, erkin jamiyatda odamlar turfa xil o'ylishi odatiy hol. Ammo millat tarbiyasi, kelajak avlod taqdiri masalasida muayyan darajada milliy birxillik, umumiy qarashlar zarur. Masalan, bola bog'chaga nima uchun boradi? Bog'chalarda o'zbek tilining go'zalligi, uni qanday sevish va ardoqlash kerakligi yetarli anglanmagan va davlat tilimizni badiiy obrazlar orqali singdirish tizimi sust. Milliy tilimizni bolalar faqat nomiga o'tkazilgan bitta-ikkita mashg'ulot orqali emas, balki milliy urf-odat, an'ana, odoab-xloq, tartib-qoidalar, buyuk mutafakkirlarning qisqa-qisqa she'rlari orqali o'rganmog'i va tafakkuriga singdirmog'i bugunning muhim talabi bo'lib qolmayapti.

ifoda etilgan. Qancha rivojlanmaylik, milliy o'zligimiz va boy ma'naviyatimiz, jamoaviy yakkiligidimiz va o'zligimizga sadoqatimiz saqlanib qoladi degan g'oya filmida bo'rtib turadi.

O'zbek xalqining xarakteri asrlar mobaynida barcha millatlar uchun o'ziga tortib turadigan ohanрабо rolini o'ynagan. Milliy o'zlik, milliy xarakterni targ'ib etish, o'zlikka o'xshashlikdan faxrlanish va o'z millatiga identifiklikdan g'ururlanish hissinii ifodalovchi kontent yaratish, millatimizning badiiy tarixini aks ettirish borasidagi ishlar faol kechmayapti.

O'zbek xalqining tinchlikparvar ruhi, millatning asl qiyofasini keng targ'ib etadigan badiiy asarlar ko'p emas. Milliy o'zlikni ko'rsatib beradigan, milliy birlashuv g'oyasi mustahkam bo'lgan qanday asarlar yaratildi, degan savolga javob berishda ziyolilarning o'zi ham shoshib qoladi. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini har gal o'qiganimda tamoman yangi-yangi ma'no-mazmun topaman. O'zbek adabiyotida serqirra mazmunga ega asarlar ko'p. Ayni paytda yaxshi she'rlar yozilyapti. Ammo o'zbek xalqining o'zligini, milliy qiyofasini ta'sirchan vositalarda ko'rsatib beradiganlari kam.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.

Yaqinda qadim Turkistonning go'zal kentlaridan biri — O'shda TURKSOY xalqaro tashkiloti tashabbusiga ko'ra, qirg'iz xalqining iste'dodli farzandi, taniqli shoiri Jolon Mamitov tavalludining 85-yilligi munosabati bilan “Yashil olam” turkiy dunyo yosh shoirlari xalqaro festivali bo'lib o'tdi.

Festivalda O'zbekiston, Turkiya, Vengriya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston va mezbon mamlakat yosh shoirlari, ijodkor-ziyolilari ishtirok etdi. Turkiy dunyoning navqiron va iste'dodli farzandlari adabiyot, san'at va qadim tilimiz istiqboli haqidagi suhbatlar chog'ida Prezidentimiz tomonidan “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik to'plamni tashkilotga a'zo davlatlarning ona tilida nashr etish g'oyasi ilgari surilgani va ushbu g'oyani birinchi bo'lib O'zbekiston amalga oshirgani, bu ezgu ish ham turkiy tilli mamlakatlar birligiga qo'yilgan katta qadam ekanini e'tirof etdi.

Ushbu boy ma'naviy meros haqida yoshlarning suhbatini eshitib, Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand shahrida o'tgan yig'ilishida davlatimiz rahbarining “Biz yaqinda tashkilotimizga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlar davlatlar tillarida ham chop etsak, qardosh ellarimizni, avvalambor, yosh avlodlarimizni o'zaro yaqinlashtirish uchun mustahkam zamin yaratgan bo'lar edik”, degan co'z'lari yodimga tushdi.

Tadbirda turkiy dunyoning turli o'lkasidan kelgan ijodkor yoshlar bunday muhtasham adabiy majmua — 100 jildlik to'plamga katta qiziqish bildirdi. Shuningdek, festival doirasida O'sh davlat universitetida o'tgan “Turkiy



Nurulla CHORIYEV,
“Yoshlik” jurnali bosh muharriri

dunyoda badiiy tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy anjumanda ham mamlakatimizning peshqadam ekani aniq dalil va misollar bilan aytiladi.

Xususan, keyingi yillarda yurtimizda Yunus Emro, Fuzuliy, Maxtumlili, Abay Qo'nanboyev, Shandor Petyofi, Chingiz Aytmatov asarlari qayta-qayta nashr etib kelinyapti. Turkiy dunyoning faxri bo'lgan bu adiblar nomi mamlakatimizdagi bog'lar va ko'chalarga qo'yilgani, Nizomiy va Abay kabi ulug'larga haykallar o'rnatilgani, Maxtumlili va Chingiz Aytmatov barelyefi Toshkentning charog'on ko'chalariga fayz bag'ishlab turgani, adabiy va abadiy do'stligimizning ramziy ifodasi ekanini quvonch bilan ma'lum qildik.

“Manas” dostonini ulug' shoir Mirtemir, undan so'ng Sulton Akbariy, Tursunboy Adashboyev va Zuhridin Isomiddinov tarjima qilgani, umuman, doston o'zbek tiliga to'g'iz marotaba o'girilgani “Yashil olam” xalqaro

yosh shoirlar festivaliga mezbonlik qilayotgan qirg'iz qardoshlarimizda katta qiziqish uyg'otdi. Bu, o'z navbatida, o'zbek xalqining qirg'iz xalqiga yuksak hurmatidan darak beradi. “Alpomish” dostoni ham yaqin orada o'zining badiiy ko'lami, jozibasi bilan qirg'iz tilida jaranglashiga ishonchimiz komil. Bunda, albatta, qardoshlarimiz tashabbusni qo'lga oladi.

Shu asnoda adabiy aloqalar qanday amalga oshirilyapti degan haqli savol paydo bo'ladi. Bunga yorqin misol tariqasida Chingiz Aytmatovning Ahmadjon Meliboyev tomonidan nashrga tayyorlangan o'n jildlik asarlarini aytish mumkin. Ushbu jildlikka Prezidentimizning “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov nafaqat qirg'iz eli, ayni paytda, butun turkiy mamlakatlar, jumladan, o'zbek xalqi uchun ham aziz va qadrlı siymo, O'zbekistonning ulkan do'sti edi... Chingiz Aytmatov adolat va haqiqat kuychisi sifatida xalqimizning sha'ni va obro'-e'tiborini katta minbarlardan turib himoya qilganini el-yurtimiz hamisha minnatdorlik bilan eslaydi” degan gaplari iqtibos qilib olingan.

Mazkur nashr Chingiz Aytmatovning qirg'iz va o'zbek xalqlari o'rtasidagi qardoshlik munosabatlari mustahkamlashdagi o'rni borasida ulug' adibning farzandi Eldor Aytmatovning “Chingiz Aytmatov — o'zbek xalqining ham dilbandi” nomli tashakkurnomasi o'rın olgani bilan yanada qadrlidir.

TURKSOY xalqaro tashkiloti tashabbus ko'rsatib, 85 yillik yubileyi katta tantana bilan nishonlangan Jolon Mamitov ijodini o'zbek o'quvchilari taniqli shoir Tursunboy Adashboyev tarjimalari orqali yaxshi biladi. Shoirning “Tog'lar”, “Izlayman”, “Tongotarda ko'lga qarab ko'zim tushar” kabi she'rlari turkiy dunyoning turli muzofotidan O'shda yig'ilgan yosh shoirlar o'rtasida O'zbekiston



Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Faxriddin Hayit ohangida yangi davmi boshladi.

Turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy-adabiy hamkorlik borasida so'z ketganda, asarlari Alisher Navoiy tilida chop etilganidan cheksiz quvonch va iftixor tuygan, kitobini yuksak didli o'zbek o'quvchilariga taqdim etganidan faxrlanadigan Qirg'iziston xalq yozuvchisi, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev ijodini chetlab o'tib bo'lmaydi. O'tgan yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi bilan mohir yozuvchining “Tanlangan asarlar”i o'zbek tilida chop etildi.

Bu ajoyib kitobga taniqli yozuvchi Xayriddin Sulton so'zboshi yozgan. Bugun adibning asarlari o'zbek kitobxonlari uchun yurtimizda katta hurmat-ehtirom ko'rsatilganini ma'lum qildik.

Yer yuzini, odamzod qalбини ma'naviy to'fon va tanazzullardan asrashga, azaliy qadriyatlarini qat'iyat bilan himoya etishga xizmat qiladigan “Suv”, “Manas otaning avlodi”, “Quyosh tutilgan kunda”, “To'fon” kabi asarlari yozuvchiga shuhrat keltirdi.

Anjumanda faqat o'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasidagi adabiy do'stlik haqida so'z yuritmadik, balki mamlakatimizda butun turkiy xalqlar o'rtasidagi adabiy do'stlik keng yo'lga qo'yilgani to'g'risida ham gapirdik. Xususan, festivalda Ozarbayjon xalq yozuvchisi Anar Rzaev Prezidentimiz farmoniga binoan “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlangani, navoiyshunos olim Ramz Asqarga Alisher Navoiyning “Xamsa”sini ona tiliga o'g'irgani uchun yurtimizda katta hurmat-ehtirom ko'rsatilganini ma'lum qildik.

Turkiy davlatlar tashkilotining Budapeshtda bo'lib o'tgan norasmiy sammiti doirasida Nobel mukofoti sovrindori, O'zbekiston Milliy universiteti faxriy doktori, turk olimi Aziz Sanjar “Turkiy dunyo birligiga qo'shgan hisssasi uchun” Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlanganini ham aytdik. Ayni shu yuksak mukofotga birinchi bo'lib qirg'iz xalqining faxri Chingiz Aytmatov munosib ko'rilganini eshitgan mezbob yoshlarning ko'zi quvonchdan portladi. Bu, albatta, turkiy dunyo olimlari, ijodkor-ziyolilar, jumladan, yoshlarni yangi marallarni zabt etishga ilhomlantiradi.

Turkiy dunyo yosh shoirlarining xalqaro festivalida qatnashgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari Shodi Otamurod, Masihulloh Madaminov, Zulfiya nomidagi



davlat mukofoti sohibi Hulkan Sherzodova xalqaro festival sovrindori bo'ldi. Yosh shoirlar Dadaxon Muhammadiyev, Yahyoxon Fayoz, Niyatullo Elbek o'g'li, Erkin Hojimuhammad TURKSOYning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Festival qardoshlarimizning o'zbek xalqiga cheksiz muhabbatini, milliy adabiyotimizga mehrini namoyon etish bilan birga, adabiyotimizni targ'ib etish yo'lidagi ilmiy-ijodiy ishlarini yanada kengaytirish imkonini ham yaratdi.

Xalqimizning qardosh yurtlardagi do'stlari, adabiyotimizning muxlisari safi tobora kengayib, adabiy do'stligimiz xalqlarimizning abadiy do'stligiga xizmat qiladi. Ha, yana bir gap: xalqaro festivalda qatnashayotgan turkiy dunyo yosh ijodkorlari qardosh xalqlar orasida o'z ijodi, adabiy qarashlari bilan tanilishi uchun, avvalo, o'zbek kitobxonlari, ijodkor yoshlari o'rtasida e'tibor qozonishi zarurligini katta mamnuiniyat bilan aytib o'tdi.

Yuksak saviyada tashkil etilgan festival turkiy xalqlarning olamni va odamni idrok etishi, qadriyatlar, qudrati, intellektini, bir so'z bilan aytganda, turkiy tillarning ulug'vorligini, badiiy so'z qudratini ko'rsatdi. Bu kabi adabiy anjumanlar adabiyotimizda yangi sahifa ochadigan quvonchli, hayajonli va noyob hodisa bo'lib qoladi. Bunday xalqaro adabiy festivallar qon-qardosh, tili o'xshash turkiy xalqlar yoshlari, ziyolilari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni, adabiy-madaniy hamkorlikni mustahkamlaydi, adabiyot maydonida yangi ovozlار paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi.

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR AGENTLIGI O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-iyunda qabul qilingan “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini xorijiy tillarga, jahon adabiyotining sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida

BADIIY TARJIMA SOHASIDA MUHAMMAD RIZO OGAHIIY NOMIDAGI XALQARO MUKOFOT TANLOVINI E'LON QILADI

Mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan mazkur xalqaro adabiy tanlov milliy adabiyotimizni dunyoga keng targ'ib qilayotgan, jahon adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek tiliga o'girib, kitobxonlarga taqdim etayotgan fidoyi tarjimonlar mehnatini munosib rag'batlantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish, xorijiy mamlakatlarida o'zbekistonlik adiblar ijodiga qiziqishni yanada oshirish kabi xayrli maqsadlarni nazarda tutadi.

Mazkur tanlovga e'lon berilgan sanagacha o'tgan besh yil davomida kitob holida chop etilgan yoki bosma davriy va elektron adabiy nashrlarda e'lon qilingan tarjima asarlar qabul qilinadi.

Xalqaro tanlov quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi va unga belgilangan hajmdan kam bo'lmagan asarlar qabul qilinadi:

- o'zbek adabiyoti nasriy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima — kamida o'n bosma taboq;
- o'zbek adabiyoti she'riy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima — kamida besh bosma taboq;
- o'zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima — kamida besh bosma taboq;

- xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima — kamida o'n bosma taboq;
- xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima — kamida besh bosma taboq;
- xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima — kamida besh bosma taboq.

Dramaturgiya janriga oid tarjima asarlar ushbu bandda ko'rsatilgan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqiladi.

Xalqaro tanlov uchun asarlar 2025-yil 1-sentabrga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan qabul qilinadi.

G'oliblarning har biri maxsus diplom, ko'krak nishoni va bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni internetdagi ogahiy.mukofoti.uz saytidan olish mumkin.

Ijtimoiy reklama



Ma'naviyat sarchashmasi



Kutubxonalar nafaqat ziyo va ma'rifat maskani, balki mamlakatlar o'rtasida ta'lim, madaniy hamkorlikni kuchaytirish, aholi turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.



Yaqinda Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan an'anaviy “Central Asia — 2025”: fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari” XVIII xalqaro konferensiyasi ushbu fikrimizni tasdiqlaydi. Tadbirda mamlakatimizdagi tuman axborot-kutubxona markazlari rahbarlari va mutaxassislari tajriba o'rttirish, fikr almashish, chet ellik hamkasblarimiz loyihalari bilan tanishish maqsadida ishtirok etdi.

Bu yil xorijiy davlatlarning kutubxonachilik bo'yicha ekspertlari ishtiroki sezilarli darajada faollashdi. Chet eldan kelgan mutaxassislarning yurtimizda sohaga qaratilayotgan e'tibor va o'zgarishlarga qiziqishi anjuman saviyasini yanada oshirdi.

Tadbir doirasida kitob yarmakalari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, she'rxonlik kechalari, taqdimotlar, viktorinalar, intellektual o'yinlar va sport musobaqalari tashkil etildi. Konferensiyada Bolgariya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Malayziya, O'mon sultonligi, Rossiya, Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston vakillarining bevosita va onlayn ma'ruzalari, nufuzli idora hamda

muassasalar, kutubxonalar rahbarlarining dolzarb mavzulardagi chiqishlari tadbir qatnashchilarida katta taassurot uyg'otdi.

Masalan, Germaniyaning Kyoln shahri kutubxonasi direktori Anja Flikerning “Kitoblar va sun'iy intellekt: savodxonlik — bizning missiyamiz. Kyoln shahri kutubxonasi jalb qilish orqali savodxonlikni qanday rivojlantiradi?” mavzusidagi ma'ruzasi ko'pchilikka manzur bo'ldi. Undagi noodatiy loyihalar, takliflar, tashabbuslar haqiqatan, hayratlanardi.

Fliker xonimning so'zlariga ko'ra, Germaniyada olti oylik bolalarga vaucher berilib, kutubxonaga a'zo qilinarkan. Ularning ota-onasi kutubxonaga kelib, bolalari bilan shug'ullanishi, kitob o'qib berishi va farzandi bilan ko'proq vaqt o'tkazishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilgan. Farzandiga ko'proq vaqt ajratgan va ko'proq kitob o'qib bergan ota-onaga rag'batlantirilgan hamda ko'krak nishoni bilan taqdirlangan ekan.

Bundan tashqari, “Uchta joy” degan loyiha ham ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Loyihada inson uchun hayoti va faoliyatida asosiy 3 ta joy

bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Bular — odamning uyi, ishxonasi va kutubxona.

Mazkur loyihaga ko'ra, kutubxona dam olish kunisiz ishlashi va kutubxonar undan xohlagan vaqtda bemalol foydalanishi, turli ijobiy g'oyalari, tashabbuslar borasida fikrlashishi, do'stlar o'rtirishi, sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishi uchun erkin maskan bo'lishi kerak. Bu yerdagi qulayliklar, xususatan, kutubxonalar talabi va didiga mos qilib jihozlanishi talab etiladi.

Anjumanda aytib o'tilgan “Har bir maktab o'quvchisining sumkasida kutubxona kartochkasi” nomli loyiha ham ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Unga ko'ra, 12 yoshdan 20 yoshgacha bo'lganlar uchun maxsus to'garak tashkil etiladi. Bu to'garaklarda o'quvchilarning kitob tanlash ko'nikmasi shakllantiriladi hamda yolg'on xabarlarini haqiqiydan farqlash o'rgatiladi.

Joriy yilgi tadbirda o'z tashabbusi bilan uyida kutubxona tashkil etgan bir necha kitobsevarning xizmati e'tirof etilib, maxsus sertifikat va kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandi. Ular orasida Saydulla

bobo Qoraboyev ham bor. U Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi Yangikent qishlog'ida yashaydi. Otaxon uyida mo'jazzina kutubxona ochib, yoshlarga mutolaa madaniyati va kitobxonlik sir-asrorlarini o'rgatayapti, kitoblar ulashib kelmoqda. Bu ko'pchilik uchun o'makka arziguqlik ish.

Konferensiyaning so'nggi kuni Qorag'aliqo'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlardagi axborot-kutubxona markazlari mutaxassislari uchun mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek, “Davlat xizmatchisi — kutubxonada bir kun” loyihasi ham amalga oshirildi. Ushbu loyiha doirasida Farg'onada ilk bor “Kitobxon davlat xizmatchisi” ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

Bundan tashqari, maxsus dastur doirasida Milliy axborot-kutubxona markazlari mutaxassislarning faoliyati tanqidiy tahlil etildi.

Fotima RO'ZIYEVA,
G'uzor tumani axborot-kutubxona markazi xodimi

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalanadi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. Bosmaxona telefonı: (71) 233-11-07.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 646. 36191 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.	Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy O'za yakuni — 20:35
Qabulxona: (71) 233-56-33	Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz	Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05	Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.